



OLIV TA'LIMDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Tolipova Ozoda Ikromovna,

Qo'qon DU v. b. dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

o16755505@gmail.com

ORCID: 0009-0007-3059-9324

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1600>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 40

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

mustaqil ta'lim, kreativ yondashuv, kredit-modul, mustaqil ta'lim shakllari, mustaqil fikrlash

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada kreativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tarzda yoritilgan. Xususan, innovatsion pedagogik metodlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interaktiv o'qitish usullari, raqamli ta'lim resurslari hamda virtual o'quv muhitlaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Muallif tomonidan kreativ yondashuvning mohiyati, uning talabalarida mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada oliy ta'lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning dolzarbligi ochib berilib, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish shakllari, usullari va vositalari tizimli ravishda ko'rib chiqilgan. Jumladan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, kollaborativ o'qitish, aralash ta'lim kabi zamonaviy yondashuvlarning afzalliklari yoritilgan. Bundan tashqari, kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'lim ulushining ortib borishi talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash va ularni amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi alohida ta'kidlangan. Maqolada mustaqil ta'limni tashkil etishda raqamli platformalar, masofaviy ta'lim texnologiyalari va elektron resurslarning ahamiyati asoslab berilib, ularning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi roli ochib berilgan. Natijada, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining intellektual salohiyatini oshirish, innovatsion fikrlashini rivojlantirish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 40

KEYWORDS

independent learning, creative approach, credit-module system, forms of independent learning, independent thinking

ANNOTATION

This article comprehensively examines the theoretical and practical aspects of improving the educational process based on a creative approach. In particular, it analyzes the effective use of innovative pedagogical methods, modern information and communication technologies (ICT), interactive teaching strategies, digital educational resources, and virtual learning environments. The essence of the creative approach and its role in developing students' independent thinking, problem-solving abilities, and creative cognition are substantiated. The article also highlights the relevance of organizing independent learning in higher education institutions on the basis of a creative approach. It systematizes the forms, methods, and tools for effectively managing independent learning. In this context, the advantages of contemporary approaches such as project-based learning, problem-based learning, collaborative learning, and blended learning are discussed in detail. Furthermore, special attention is paid to the increasing share of independent learning within the credit-module system, emphasizing its focus on enabling students to independently acquire subject-related knowledge. It is noted that this process fosters self-development skills, autonomous learning competencies, and the ability to apply knowledge in practice. The importance of digital platforms, distance learning technologies, and electronic resources in organizing independent learning is also justified, along with their role in enhancing the quality and effectiveness of education. As a result, the study concludes that an educational process organized on the basis of a creative approach serves as a key factor in developing students' intellectual potential, fostering innovative thinking, and preparing competitive specialists who meet the demands of the modern labor market.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar o'rinda ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishni takomillashtirish darajasi, salohiyati ham zarur. Talabalar mustaqil ishi mexanizmlarini takomillashtirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yuritish uchun zarur shart-sharoit yaratishda oliy ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy ravishda yangilanish va rivojlanishga muhtoj. O'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishdagi samaradorligini oshirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. Shundan kelib chiqib, ta'limda kreativ yondashuvni qo'llash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ushbu maqolada kreativ yondashuvning ta'lim jarayoniga ta'siri, uning metodologiyasi va ta'limni takomillashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan, 2020-yil 23-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ 637-sonli Qonunida ham ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarining turli shakllarda ta'lim olishi (ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (masofaviy, sirtqi, kechki); dual ta'lim; oilada ta'lim olish va mustaqil ishi; kata yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; inklyuziv ta'lim; eksternat tartibidagi ta'lim; mudofaa, xavfsizlik va

huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasidagi kadrlarni tayyorlash) belgilab qo'yilgan[1]. Shunday ekan, yuqoridagilarni inobatga olib mustaqil ta'limni tashkil etishni takomillashtirish, mustaqil o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Bugungi globallashtirish, raqamli texnologiyalar rivoji va bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalar qo'yilmoqda. Xususan, talabalarni nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi subyekt sifatida, balki mustaqil fikrlovchi, ijodkor va o'z-o'zini rivojlantira oladigan shaxs sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'limda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish va uni kreativ yondashuv asosida rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi talabalarining mustaqil ta'lim ulushini keskin oshirdi. Bu esa talabalardan o'z bilimlarini mustaqil ravishda egallash, tahlil qilish, yangi g'oyalarni yaratish va muammoli vaziyatlarni hal eta olish kabi kompetensiyalarni talab qiladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim jarayoni ko'pincha an'anaviy yondashuv asosida tashkil etilib, unda talabalar faol ishtirok etmaydi, ijodiy fikrlash yetarli darajada rivojlanmaydi. Natijada mustaqil ta'limning samaradorligi past bo'lib qolmoqda.

Mazkur muammoning yechimi sifatida ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvni joriy etish muhim hisoblanadi. Kreativ yondashuv

talabalarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularni yangi g'oyalari ishlab chiqishga undash, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv ta'lim jarayonini interfaol va talaba markazli tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy muammosi shundan iboratki, oliy ta'limda mustaqil ta'limni kreativ yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik asoslari, samarali metod va vositalari yetarli darajada tizimlashtirilgan hamda amaliyotga keng joriy etilmagan. Tadqiqot gipotezasi quyidagicha ifodalanadi: agar oliy ta'limda mustaqil ta'lim jarayoni kreativ yondashuv asosida tashkil etilib, unda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, muammoli vaziyatlar va refleksiv faoliyat uyg'un qo'llanilsa, unda talabalarining mustaqil o'qish faoliyati samaradorligi oshadi, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish va kreativ yondashuvni qo'llash masalasi jahon va milliy pedagogika fanida keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kreativlik va mustaqil ta'lim asosan shaxs rivoji va kognitiv jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganilgan. Jumladan, J. Dewey ta'lim jarayonida "learning by doing" tamoyilini ilgari surib, talabani faol ishtiroki va amaliy faoliyat orqali bilim olishining muhimligini asoslab bergan. J. Bruner esa konstruktivistik yondashuvni rivojlantirib, bilimlarni mustaqil kashf etish orqali o'zlashtirish g'oyasini ilgari suradi. A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida shaxsning faol ishtiroki va muhit bilan o'zaro ta'siri orqali rivojlanishi asoslaydi. MDH mamlakatlari olimlari tomonidan mustaqil ta'lim va kreativ yondashuv faoliyatga yo'naltirilgan pedagogika nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. L.S. Vygotskiy shaxs rivojida ijtimoiy muhit va muloqotning rolini asoslab, mustaqil o'rganish jarayoni ham ijtimoiy hamkorlik orqali rivojlanishini ko'rsatadi[2]. A.N. Leontyev esa faoliyat nazariyasida bilimlarni egallash jarayonini shaxsning faol ishtiroki bilan bog'laydi. O'zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu muammo keng o'rganilgan. N. Muslimov va O. Qo'ysinov mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, unda talabalarining mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish muhimligi ta'kidlanadi[5]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa kreativ yondashuv asosida ta'limni tashkil etish, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda mustaqil ta'lim va kreativ yondashuv alohida yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ularni integratsiyalashgan holda, ya'ni oliy ta'limda mustaqil ta'limni kreativ yondashuv asosida tashkil etishning kompleks pedagogik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim tizimida kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etish zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoni an'anaviy bilim berishga asoslangan modeldan voz kechib, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlarga asoslangan tizimga o'tmoqda. Bu jarayonda talabani mustaqil o'rganish faoliyatini tashkil etish, uning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish pedagogik zaruriyat sifatida qaraladi[8].

Kreativ yondashuv ta'lim jarayonida talabani ijodiy tafakkurini, muammoli vaziyatlarga noodatij yechim topish qobiliyatini va shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan metodologik asosdir. Ushbu yondashuv konstruktivistik ta'lim nazariyasi, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga tayanadi. Bunda talaba passiv bilim oluvchi emas, balki bilimini mustaqil ravishda shakllantiruvchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Kreativ yondashuv sharoitida o'quv jarayoni muammoli vaziyatlar asosida tashkil etiladi, talaba izlanadi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va o'z bilimini mustaqil ravishda quradi. Natijada, unda divergent fikrlash, refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Mustaqil ta'lim esa talabani o'qituvchi rahbarligida, ammo bevosita nazoratsiz holda bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni egallashga qaratilgan faoliyatidir. Uning pedagogik asoslari faoliyat nazariyasi, konstruktivizm, andragogika va metakognitiv yondashuvlarga borib taqaladi. Mustaqil ta'lim jarayonida talaba o'z o'qishini rejalashtiradi, nazorat qiladi va baholaydi. Bu esa unda o'z-o'zini boshqarish, axborotni izlash va qayta ishlash, tanqidiy fikrlash hamda muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantiradi[7].

Kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'limning ahamiyati yanada ortadi. Ushbu tizimda talabani umumiy o'quv yuklamasining katta qismi mustaqil ta'limga to'g'ri keladi[13]. Bu esa talabani bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga, o'z ta'lim trayektoriyasini shakllantirishiga va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim natijaga yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik, individuallashtirish va uzluksiz baholash kabi xususiyatlar bilan

tavsiflanadi. Bunday ta'limni samarali tashkil etishda turli innovatsion shakllar qo'llaniladi. Jumladan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, tadqiqot faoliyati, keys-stadi, portfoliolar yaratish, gamifikatsiya va kollaborativ o'qitish usullari talabalarining faolligini oshiradi va ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Ushbu shakllar orqali talabalar nafaqat bilim oladi, balki uni amaliyotda qo'llashni, yangi g'oyalari yaratishni va jamoada ishlashni o'rganadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham kreativ mustaqil ta'limni tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Raqamli platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, virtual laboratoriyalar va elektron resurslar orqali talabalar istalgan vaqtda va istalgan joyda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'limning moslashuvchanligi va samaradorligini oshiradi.

Mazkur jarayonda o'qituvchi roli ham tubdan o'zgaradi. U endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki fasilitator, mentor va ta'lim jarayonini loyihalovchi sifatida faoliyat yuritadi. O'qituvchi talabalarga yo'nalish beradi, ularning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, muammoli vaziyatlar yaratadi va refleksiv tahlilni tashkil etadi. Oliy ta'limda kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim talabalarining intellektual va kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi, ularni innovatsion fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi[11].

Oliy ta'limda kreativ yondashuv va mustaqil ta'limni tashkil etish masalasini yoritishda ushbu tushunchalarga olimlar tomonidan berilgan ta'riflar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Quyida mazkur yo'nalish bo'yicha yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari keltiriladi. Avvalo, mustaqil ta'lim tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, Malkolm Noulz mustaqil o'rganishni shunday ta'riflaydi: "mustaqil o'rganish – bu shaxsning o'z tashabbusi bilan o'quv ehtiyojlarini aniqlashi, maqsadlar qo'yishi, resurslarni tanlashi, o'rganish strategiyalarini ishlab chiqishi va natijalarni baholashi jarayonidir." Ushbu ta'rif mustaqil ta'limning andragogik asoslarini ochib beradi va talabani faol subyekt sifatidagi rolini ta'kidlaydi. Shuningdek, Lev Vygotskiy mustaqil o'rganishning ijtimoiy-madaniy asoslarini ishlab chiqib, "yaqin rivojlanish zonasini" konsepsiyasi orqali ta'lim jarayonida talabani mustaqil faoliyati va o'qituvchi rahbarligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab beradi. Uning fikricha, o'quvchi (talaba) mustaqil ravishda bajara olmaydigan, ammo yo'naltirish orqali amalga oshira oladigan faoliyatlar rivojlanishning muhim manbai hisoblanadi[15].

Mustaqil ta'limga yana bir muhim yondashuv Jean Piaget tomonidan ilgari surilgan konstruktivizm nazariyasida aks etadi. Piagetga ko'ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki o'quvchi tomonidan faol o'zlashtirish jarayonida "quriladi". Bu esa mustaqil ta'limning kognitiv asoslarini belgilaydi.

Kreativ yondashuv va ijodiy fikrlash masalasida Joy Paul Guilford kreativlikni "divergent fikrlash qobiliyati, ya'ni bir muammoning bir nechta original yechimlarini ishlab chiqish imkoniyati" sifatida talqin qiladi. Ushbu ta'rif kreativ yondashuvning asosiy belgisi sifatida yangicha fikrlashni ko'rsatadi. Bundan tashqari, E. P. Torrance kreativlikni "muammolarga sezgirlik, muammoni aniqlash, farazlar ilgari surish, ularni tekshirish va natijalarni takomillashtirish jarayoni" sifatida izohlaydi. Torrance kreativlikni o'lchash va rivojlantirish bo'yicha ilmiy metodikalarni ishlab chiqqan olim sifatida tanilgan.

Pedagogik nuqtai nazardan kreativ yondashuv Ken Robinson tomonidan "ta'lim jarayonida insonning tabiiy ijodiy salohiyatini ochish va rivojlantirishga yo'naltirilgan tizim" sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, zamonaviy ta'lim tizimi kreativlikni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, John Dewey ta'limni tajribaga asoslangan faol jarayon sifatida izohlab, "ta'lim – bu hayotning o'zi" degan g'oyani ilgari suradi. Deweyga ko'ra, o'rganish jarayoni faol, tajribaga asoslangan va mustaqil bo'lishi kerak, bu esa kreativ yondashuv va mustaqil ta'limning metodologik asosini tashkil etadi.

Yuqoridagi olimlarning ta'riflari va nazariyalari kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslarini belgilab beradi. Ular ta'lim jarayonida talabani faolligi, mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda sifatli tadqiqot usuli qo'llanildi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini o'rganish uchun kuzatuvlar, so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi. Tadqiqotda 100 nafar o'quvchi ishtirok etdi, ularning 60 nafari o'quvchilardan iborat bo'lib, qolgan 40 nafari o'qituvchilardir. Darhaqiqat, jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakli, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta'sirini tahlil etganda, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvga bo'lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini aniqladik:

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'lim tizimi, metodologiyasi va o'quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday

sharoitda o'qituvchining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini egallashdan iborat. Bu esa, o'z-o'zidan bo'lajak pedagoglarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya'ni ta'limga innovatsiyalar kiritishni taqozo qiladi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalar kiritishning muhim shartlaridan biri esa, o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflanadi.

Uchinchidan, pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq etishga nisbatan bo'lajak o'qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi.

Ma'lumotlar to'plash jarayonida quyidagi metodlar qo'llanildi:

O'quvchilarning kreativ yondashuvga bo'lgan munosabatini aniqlash uchun so'rovnomalar o'tkazildi.

O'qituvchilarning kreativ yondashuvni qo'llashdagi tajribalarini o'rganish uchun intervyular olib borildi.

Dars jarayonlarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini ruzatish orqali ma'lumotlar yig'ildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar sifatli tahlil usullari yordamida tahlil qilindi. So'rovnomalar va intervyulardan olingan javoblar tematik tahlil qilindi, kuzatuvlar esa kontent tahlili yordamida tahlil qilindi.

1-jadval. Talabalarda mustaqil ta'lim va kreativ fikrlash darajalarining o'zgarishi

Daraja	Tajriba guruhi (boshlanish)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (boshlanish)	Nazorat guruhi (yakuniy)
Yuqori	20%	48%	22%	28%
O'rta	44%	38%	46%	47%
Past	36%	14%	32%	25%

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi ko'rsatkichlar 20 foizdan 48 foizga oshgan, past darajadagi ko'rsatkichlar esa 36 foizdan 14 foizgacha kamaygan. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar nisbatan past darajada kuzatilgan. Bu esa kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'limning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, so'rovnoma natijalari asosida talabalarining 82 foizi kreativ metodlar ularning mustaqil o'qish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini qayd etgan. Kuzatuv natijalari esa talabalar o'rtasida ijodiy faollik, muammoli vaziyatlarga yechim topish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarining sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi.

Natijalarni umumlashtirib aytganda, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayoni talabalarining:

- mustaqil bilim olish ko'nikmalarini,
- ijodiy va tanqidiy fikrlashini,
- muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Shu bilan birga, olingan natijalar grafik va diagrammalar orqali ham ifodalanishi mumkin bo'lib, ularda tajriba guruhida ijobiy o'sish dinamikasi, nazorat guruhida esa nisbatan past o'zgarish kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni ko'rsatdi:

Ijodiy faoliyatning oshishi: Kreativ yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyati sezilarli darajada oshdi. O'quvchilar yangi g'oyalarni ishlab chiqishda, muammolarni hal qilishda va o'z fikrlarini erkin ifoda etishda faol ishtirok etdilar. Tanqidiy fikrlashning rivojlanishi: O'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlandi. Ular o'z fikrlarini asoslashda, dalillarni keltirishda va qarorlar qabul qilishda yanada ehtiyotkor bo'ldilar.

O'qituvchilarning metodologik tayyorgarligi: O'qituvchilarning kreativ yondashuvni qo'llashdagi metodologik tayyorgarligi oshdi. Ular yangi metodlarni o'zlashtirishda va dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashda faol ishtirok etdilar.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga yangi g'oyalarni ishlab chiqish, muammolarni hal qilish va o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, kreativ yondashuv o'qituvchilarning metodologik tayyorgarligini oshiradi va ta'lim jarayonining sifatini yaxshilaydi. Biroq, kreativ yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etishda ba'zi muammolar mavjud. O'qituvchilarning yangi metodlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari, ta'lim muassasalarining resurslar bilan ta'minlanishidagi muammolar va o'quvchilarning kreativ yondashuvga bo'lgan tayyorgarligi bu muammolar orasida keltirilishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilarga doimiy ravishda malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, ta'lim muassasalarining resurslari yaxshilanishi va o'quvchilarga

Natijalar. Mazkur tadqiqotda oliy ta'limda kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Metodologiya qismida belgilangan tartib asosida tadqiqot uch bosqichda — aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida amalga oshirildi hamda natijalar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Aniqlovchi bosqichda talabalar mustaqil ta'lim faoliyati va kreativ fikrlash darajasi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarining aksariyati mustaqil ta'lim jarayonida passiv ishtirok etadi, ularning ijodiy yondashuvi va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Respondentlarning katta qismi mustaqil topshiriqlarni faqat reproduktiv darajada bajarishi, ya'ni mavjud bilimlarni takrorlash bilan cheklanishi aniqlandi.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida mustaqil ta'lim jarayoni kreativ yondashuv asosida qayta tashkil etildi. Bunda interfaol metodlar (keys-stadi, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar), raqamli ta'lim resurslari va reflektiv topshiriqlar tizimli ravishda qo'llanildi. Talabalar mustaqil izlanish olib borish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va o'z fikrlarini asoslash jarayoniga faol jalb etildi.

Nazorat bosqichida tajriba va nazorat guruhlari natijalari o'zaro taqqoslandi. Quyidagi jadvalda mustaqil ta'lim samaradorligi va kreativ fikrlash darajalarining o'zgarishi keltirilgan:

kreativ yondashuvni o'rgatish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'limda mustaqil ta'limni kreativ yondashuv asosida tashkil etish talabalarining o'quv faoliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Kirish qismida ilgari surilgan gipoteza, ya'ni mustaqil ta'lim jarayonida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, muammoli vaziyatlar va reflektiv faoliyatni kompleks qo'llash talabalarining mustaqil o'qish samaradorligini hamda ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi degan ilmiy faraz ushbu tadqiqot natijalari bilan asoslandi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, an'anaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim talabalarining faolligini yetarli darajada oshira olmaydi. Aksariyat hollarda talabalar topshiriqlarni reproduktiv darajada bajarish bilan cheklanadi. Bu esa ularning ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan kreativ yondashuv esa talabalarni faol subyektga aylantirib, ularni mustaqil izlanishga, muammolarni tahlil qilishga va yangi g'oyalarni yaratishga undadi.

Mazkur natijalar xorijiy va mahalliy olimlar qarashlari bilan hamohangdir. Xususan, J. Dewey tomonidan ilgari surilgan "learning by doing" tamoyili amaliy faoliyat orqali bilim olishning samaradorligini asoslaydi. Shuningdek, konstruktivistik yondashuv tarafdori J. Brunerning bilimlarni mustaqil kashf etish orqali egallash haqidagi qarashlari ham ushbu tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Biroq ushbu tadqiqotning farqli jihati shundaki, unda mustaqil ta'limni tashkil etishda kreativ yondashuv faqat metod sifatida emas, balki kompleks pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, talabalar dastlab kreativ topshiriqlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch keldi, chunki ular ko'proq an'anaviy ta'lim usullariga o'rganib qolgan edi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning ham kreativ metodlarni samarali qo'llash uchun yetarli metodik tayyorgarligi har doim ham yuqori darajada emasligi aniqlandi. Bu esa kreativ yondashuvni amaliyotga joriy etishda tizimli metodik qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi. Olingan natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan pedagogik yondashuv oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishda samarali model sifatida qo'llanishi mumkin. Xususan, kredit-modul tizimi sharoitida talabalar mustaqil ishlarni tashkil etishda interfaol metodlar, loyiha ishlari, raqamli platformalar va reflektiv topshiriqlardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa talabalarining nafaqat bilim olish darajasini, balki ularning kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Mazkur tadqiqot asosida yangi ilmiy faraz sifatida shuni ilgari surish mumkin: agar kreativ yondashuv mustaqil ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli ta'lim platformalari bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilsa, talabalarining mustaqil o'rganish samaradorligi yanada oshadi.

Chunki zamonaviy raqamli vositalar individual ta'lim trayektoriyasini yaratish va refleksiv tahlilni chuqurlashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda mustaqil ta'limni kreativ yondashuv asosida tashkil etish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu yondashuvni ta'lim tizimiga keng joriy etish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi. "Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi".

Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifi ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: «Mustaqil fikrlash -insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul,

vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir». Shunga ko'ra, so'nggi yillarda o'ziga xos dolzarblik kasb etayotgan mustaqil ta'lim asosida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, erkin-ijodiy ta'lim muhiti shakllantirishning zaruriy pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv va tarbiyaviy faoliyatni loyihalashtirishning integrallashgan pedagogik tizimini amaliyotga tatbiq etish orqali jarayon samaradorligini oshirish masalasi tadqiqotimizning asosini tashkil etadi.

Kreativ yondashuv ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasidir. Ushbu yondashuv o'quvchilarga yangi g'oyalarni ishlab chiqish, muammolarni hal qilish va o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, kreativ yondashuv o'qituvchilarning metodologik tayyorgarligini oshiradi va ta'lim jarayonining sifatini yaxshilaydi. Shuning uchun ta'limda kreativ yondashuvni tatbiq etish va uning samaralarini ta'minlash uchun zarur resurslar va metodologiyalarni ishlab chiqish juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bandura, A. (2017). *Social learning theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
2. Bruner, J. (2018). *The culture of education*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Dewey, J. (2015). *Democracy and education*. New York, NY: Macmillan.
4. Guilford, J. P. (1967). *The nature of human intelligence*. New York, NY: McGraw-Hill.
5. Kaufman, J. C., & Sternberg, R. J. (2019). *The Cambridge handbook of creativity*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Leontyev, A. N. (2021). *Activity, consciousness, and personality*. Moscow: Politizdat.
7. Muslimov, N. A., & Qo'ysinov, O. A. (2009). *Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: Fan.
8. Nishonaliyev, U. N. (2010). *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. Toshkent: O'qituvchi.
9. Ochilov, M. (2012). *Pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Fan.
10. Piaget, J. (1932). *The moral judgment of the child*. New York, NY: Free Press.
11. Runco, M. A. (2014). *Creativity: Theories and themes: Research, development, and practice*. San Diego, CA: Academic Press.
12. Sattorov, B., & Toshxonov, A. (2019). *Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatma*. Namangan.
13. Vygotsky, L. S. (2015). *Thinking and speech*. Moscow: Pedagogika.
14. Yuldashev, K. K. (2016). *Shaxs kamoloti va tarbiya jarayoni*. Toshkent: Fan.
15. Zimmerman, B. J. (2002). *Becoming a self-regulated learner: An overview*. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70.